



TA'LIM MUASSASALARIDA PSIXOLOGIK XIZMAT KO'RSATISH VA UNING AHAMIYATI

Bo'tayeva Hulkar G'ofurovna

Qashqadaryo viloyati Koson tuman 26-maktab psixologi

Annotatsiya : Ushbu maqola orqali muallif maktabdagi psixologlarning ish faoliyati, ularning rejadagi mashg'ulotlari va maktab hayotidagi amaliyotchi psixologlarning o'rni xaqida batafsil yoritib o'tadi. Ta'lim tizimidagi psixologik xizmat tizimining ilmiy va amaliy vazifalari turli mamlakatlarda turlicha joriy etilmoqda. Bizning umumiy o'rta ta'lim maktablarimizda psixologik xizmat tizimi o'ziga xos usulda joriy etildi va dastlabki olib borilayotgan eksperimental tadqiqotlar haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Psixologik xizmat, psixokorreksiya, adabtatsiya, psixoproflaktika, psixoterapiya, ruhiyat.

Ta'limning barcha turlarini amalga oshirish jarayonida psixologik xizmat, jamoada psixologik munosabatlar kabi ta'lim bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlarni o'rganish va tadqiq qilish masalalariga katta e'tibor berilmoqda.

Ta'lim-tarbiyadagi individual yondashuv, bolani boshqalardan ajratib individual o'qitishni bildirmaydi, balki shaxsning u yoki bu hislatlarning shakllanishida maxsus sharoitlarni hisobga olish, har bir o'quvchining individual psixologik xususiyatlarini ilmiy asosda tushunishni anglatadi.

Ta'lim tizimidagi psixologik xizmat tizimining ilmiy va amaliy vazifalari turli mamlakatlarda turlicha joriy etilmoqda. Bizning umumiy o'rta ta'lim maktablarimizda



psixologik xizmat tizimi o'ziga xos usulda joriy etildi va dastlabki eksperimental tadqiqotlar olib borilmoqda.

Maktabda ta'lim olayotgan har bir bolaning iqtidorini, individual imkoniyatlarini va boshqa bir qator shaxsiy sifatlarim batafsil o'rganmay, tahlil qilmay turib, mazkur o'quvchining kelajagini pedagogik jihatdan to'g'ri baholab bo'lmaydi. O'quvchilarning faolligini ta'minlashda bugungi kunda psixologik xizmat tizimi tomonidan bartaraf qilinishi lozim bo'lgan muammolar mavjud.

Bolalarni ruhiy va intellektual tayyorgarligi asosida maktabga qabtil qilish shunday masalalardan biridir.

Bola shaxsini to'g'ri tushunish va uning harakatlarini tahlil qila olish zarur. «Har bir shaxs qaytarilmas temperamentdir», -degan edi fiziolog olim LP.Pavlov.

Psixologik xizmatning umumiy maqsadlaridan kelib chiqib, psixolog umumiy o'rta ta'limi maktablarida quyidagi vazifalarni bajarishi talab etiladi:

1. Bolalarning har bir yosh bosqichida shaxs sifatida va intellektual jihatdan to'laqonli rivojlanishini ta'minlash, ularda o'z-o'zini tarbiyalash va rivojlantirish qobiliyatini shakllantirish;
2. Har bir bolaga individual yondashuvni va uning psixologik-pedagogik o'rganilishini ta'minlash;
3. Bolaning intellektual jihatdan va shaxs sifatida rivojlanish jarayonida yuz berishi mumkin bo'lgan chetga chiqishlarni profilaktika qilish;

Bugun bolani har tomonlama rivojlantiradigan, uni fikrlashga o'rgatadigan, qobiliyatining asta-sekin o'sib borishiga imkoniyat yaratadigan, tafakkurning yangi-yangi qirralarini ochadigan pedagogik usullar va maxsus psixologik xizmat tizimi mavjud bo'lgan taqdirdagina ko'zda tutilgan maqsadlarga erishish mumkin, Yuqoridagilardan kelib chiqib, umumiy o'rta ta'lim maktablarida psixologik xizmatni tashkil etish hamda uni har tomonlama rivojlantirib borish kelajak avlod taraqqiyoriga ulkan zamin hozirlaydi. Bu esa, o'z navbatida psixologik xizmatning ijtimoiy-iqtisodiy tomonlarini o'rganib chiqish



kerakligini talab etadi. bir insonning o'zigagina xos imkoniyatlari mavjudligi va unga hamisha jiddiy e'tibor berish zarurligi haqida to'xtalib o'tadi. maktabda psixolog o'zining rejadagi ishlaridan boshqa ishlarni xam amalga oshiradi. Bular qatoriga ruhiy rivojlanishdagi ortda qolayotgan bolalarni qo'shishimiz mumkin. Organik doiradagi psixopat bolalarda irodaning etarli darajada rivojlanmasligi shunda namoyon bo'ladiki, ular o'z xatti-harakatlarini tartibga sololmaydilar, ya'ni o'z faoliyatlarini o'z oldilariga qo'yilgan talablarga moslashtira olmaydilar. Bunday psixopat bolalarning kamol topib borishidagi xususiyatlari ilk bolalik davridayoq namoyon bo'ladi hamda jonsarakligi, behuda baqirib-chaqirishi va yaxshi uxlamasligi bilan xarakterlanadi. Maktabgacha tarbiya yoshida ular bo'lar-bo'lmasga mushtlashaveradilar, bolalar bilan chiqisha olmaydilar va o'ynamaydilar, hech kimga yon bermaydilar. Maktabgacha tarbiya yoshning oxiriga borib, ularda ortiqcha primitiv intilishlar, o'jarlik, affektiv jizzakilikka moyillik namoyon bo'la boshlaydi. Intellect, nutq va motorikaning rivojlanishi, odatda normal o'tadi. Organik psixopatiya bo'lganida maktab yoshi davrida, bolalarda shaxs rivojlanishi normal jarayoni buzilishga aniq ko'rinadi. Ularda vaziyatga ichki munosabat vujudga kelmaydi, ular vaziyatni to'g'ri hisobga olmaydilar. Shu sababli ular kattalar, pedagogiga to'g'ri distant munosabatda bo'lmaydilar, o'z harakatlarini va ishlarini etarli darajada anglab etmaydilar. Ammo bunday bolalarda intellekt buzilmagan, tafakkur, xotira, ko'rish qobiliyati va makonini idrok etish, nutq etarli darajada o'sgan. Organik psixopatiyalı bolalarni o'qitishdagi eng muhim narsa ularni topshiriqlarni puxta bajarishga qunt bilan o'rgatishdir, avval osonroq topshiriqlar berib, keyin ularni asta-sekin murakablashtirib borish lozim. Bu guruhdagi psixopat bolalarga tarbiya berishdagi tadbirlar ularning o'z xatti-harakatini tahlil qila olishga va to'g'ri baho berishga qaratilgan turlarini o'z ichiga oladi. Pedagog doimo ularni eng yaxshi yo'lga qo'yilgan rejim sharoitida ushlab turishi va diqqat-e'tibordan chetda qoldirmasligi zarur. Organik doiradagi psixopat bolalar bilan ishlashda osoyishta va bir xil ohangda gapirish g'oyat muhimdir, chunki ular juda ta'sirchan bo'lganliklari sababli arzimagan gapdan jaxllari chiqib ketishi va affektiv jahldorlik darajasiga borib etishlari



mumkin. Pedagog shuni esda tutishi kerakki, affekt vaqtida bolaga nasihat qilishga va ayniqsa jazo berishga qaraganda uning e'tiborini boshqa biror faoliyatga qaratish yaxshiroqdir, chunki jazolash jahlni yanada kuchaytirishga olib kelish mumkin. Emotsional sustkashlik, biqlik, amaliy ishga moslashmaganlik va yaxshi rivojlanmagan motorika tafakkurning, asosan abstrakt fikr yuritishning yuksak darajada rivojlanmaganligi, nasl-nasabida og'ir dardlar bo'lganligi – bu holni shizoid psixopatiya jumlasiga kiritish uchun asos bo'la oladi. Emotsiyalarning bo'shlig'i shizoid bolalar uchun eng xarakterli xususiyatdirki, u eng ilk bolalik chog'laridayoq namoyon bo'ladi. Ularda boshqa bolalar bilan faol muomala bo'lishga talab, o'yinchoqlarga qiziqish bo'lmaydi, amaliy faoliyatga intilish yo'q. Bu esa ularning motorikasining yanada rivojlanishiga to'siqlik qiladi. Bu bolalarda voqelik bilan aloqaning bevosita formasi o'rnini ko'proq gaplashib oladi, shu sababli ularda abstrakt mavzularda ko'p savollar berish va fikr yuritish, kitobga barvaqt qiziqish paydo bo'ladi. Ular kitob o'qishni ancha erta boshlaydilar. Bu esa abstrakt fikr yuritishning yaqqol ustun bo'lishiga olib keladi. Bu bolalar bilan korreksion-tarbiyaviy ishni juda yoshligidan boshlash zarur. Bu ish birinchi navbatda motorikani rivojlantirishga qaratilishi lozim; bolalarni kiyinishga, echinishga, botinka ipini bog'lash, buyumlarni yaxshilab tanlashga, kubiklar, piramidalar, mozaykalar yasashga, rasm chizishga, rasmlarni bo'lishga va boshqa shu singari ishlarga o'rganish zarur. Bolaning etarli bo'lmagan motorikasini butun choralar bilan o'stirib borish o'rniga ota-onalar, ko'pincha unga haddan ziyod vosiylik qiladilar, bolaning bajarishi lozim bo'lgan hamma ishlarni o'zlari qilib, uning harakatlarini takomillashtirishga yanada ko'proq xalaqit beradilar, amaliy ishga moslashmaganligini kuchaytiradilar. Bunday bolalar maktabda o'qiy boshlaganlarida pedagog, yuqorida sanab o'tilgan tadbirlardan tashqari, ularda maktab ko'nikmalarini, ayniqsa, yozuv ko'nikmalarini o'stirishga alohida e'tibor berish lozim.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Borril, C. S., Wall, M. A., West, G. E., et al (1996) Mental Health of the Workforce in NHS Trusts. Leeds: Institute of Work Psychology, University of Sheffield & Department of Psychology, University of Leeds.
2. Обидов А О., Новиков Ю.В. Соғлигимиз ўз қўлимизда. Тошкент. “Медицина” 1989.